

ABU YUSUFNING “KITOB AL-XAROJ” ASARIDA ISLOM IQTISODIYOTIGA OID QARASHLARNING AKS ETISHI

ОТРАЖЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ИСЛАМСКУЮ ЭКОНОМИКУ В «КИТАБ АЛ-ХАРАДЖ» АБУ ЙУСУФА

REFLECTION OF VIEWS ON ISLAMIC ECONOMY IN «KITAB AL-KHARAJ» BY ABU YUSUF

Dr Abduqahhor A. RAXMONOV

Termiz branch of the Tashkent Medical Academy
Deputy director, doctor of philosophy (PhD),
associate professor;
64, I. Karimov, Termiz, 132000, Uzbekistan.
Email: rahmonov_a.a@mail.ru

DOI: 10.47980/IAU/2024/3/7

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom tafakkuri tarixida ulkan iz qoldirgan, hanafiylik mazhabi nazariy asoslarining shakllanishida o'zining katta hissasini qo'shgan muftahid olim Yoqub Abu Yusufning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari uning “Kitob al-xaroj” asari asosida tahlil qilingan. “Kitob al-xaroj” islom ta'limotidagi hanafiy mazhabi bo'yicha bitilgan ilk yozma manba hisoblanadi. Uning soliq solish muammolari to'g'risidagi ushbu risolasi islom olamida iqtisodiy masalalarni qamrab olgan asar bo'lib, Abu Yusuf VIII asr oxirlarida Abbosiylar xalifaligining bosh qozisi bo'lib ishlagan paytida yozgan.

Islomning ilk davrida musulmon iqtisodchilari fiqh olimlari bo'lishgan. Islom shariyati qoidalariga tayangan musulmon olimlari tomonidan o'z davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir qator iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni tadqiq etilishi yangi bilimlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Horun ar-Rashid davrida bosh qozi bo'lgan fiqh olimi Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asari buning yorqin dalili hisoblanadi. Unda nafaqat soliqqa tortishning huquqiy jihatlariga, balki davlatning iqtisodiy siyosati borasidagi masalalarga ham murojaat etgan.

Ushbu maqolada Abu Yusufning hayoti va faoliyati, ilk islom davridagi soliq tizimining shakllanishi, iqtisodiy-madaniy hayot, yer va suvdan foydalanish tartibi, xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosat, turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarga yechim sifatida berilgan takliflari birma-bir ko'rib chiqilgan. Mavzu keng miqyosda fiqh ilmiga oid manbalar orqali tahlil qilinsa-da, biroq “Kitob al-xaroj”da keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilinadi.

Maqolada davlat boshqaruvi, xalifalik tarixi va an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar ham keltirilgan. “Kitob al-xaroj” asari islom davlati hududi kengaygan davrda, turli o'lkalardagi ayrim masalalar tufayli yuzaga

kelgan muammolarni yechishga qaratilgan bo'lib, Abu Yusuf uni asosan Abu Hanifaning huquqiy nazariyasiga tayangan holda, shuningdek, eng ishonchli hadislar, sahobalarning aytgan so'zlari, qo'llagan usul va qoidalardan foydalanib yozgan. Abu Yusuf muftahid olim sifatida o'z darining muhim diniy masalalari, jumladan, iqtisodiy soha bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lgan. “Kitob al-xaroj” asari undan keyin Yaxyo ibn Odam, Abu al-Abbos Muhammad Kotib, Abu al-Faraj Qudama ibn Ja'far, Nasr ibn Muso ar-Romiy, Xasan ibn Ziyod tomonidan ushbu nomda yozilgan kitoblar orasida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ilmiyligi va daqiqligi bilan ulardan ajralib turadi. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot, diniy-falsafiy va islom soliq tizimiga oid tahliliy ma'lumotlar bilan bir qatorda VIII – IX asrlarda Musulmon sharqidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ilk abbosiylar xalifaligi davrida madaniy-ma'rifiy aloqalar, Abu Yusuf qarashlari xalq farovonligi va ijtimoiy adolat g'oyasining iqtisodiy-falsafiy jihatlarini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Abu Yusuf, Islom iqtisodi, iqtisodiy fikr, fiqh, hanafiy mazhabi.

Аннотация. В данной статье, основываясь на идеях ученого, анализируются социально-экономические взгляды Якуба Абу Йусуфа, ученого-муджтахиды, оставившего значимый след в истории исламской мысли и внесшего большой вклад в формирование теоретических основ ханафитского мазхаба. Произведение “Китаб аль-харадж” — первый письменный источник ханафитской школы исламского вероучения. Трактат Абу Йусуфа о проблемах налогообложения представляет собой труд, посвященный экономическим проблемам исламского мира, и был написан Абу Йусуфом в бытность его главным судьей Аббасидского халифата в конце VIII века.

В ранний период ислама мусульманские экономисты были учеными-факихами. Большое влияние на развитие новых знаний оказало исследование мусульманскими учеными, опиравшимися на правила исламского шариата, ряда экономико-социальных вопросов, имевших актуальное для того времени значение. Ярким доказательством этого является “Китаб ал-харадж” Абу Йусуфа, ученого-факиха, который был главным судьей во времена Харуна ар-Рашида. В труде рассматривались не только правовые аспекты налогообложения, но и вопросы экономической политики государства.

В исследовательской работе рассмотрены жизнь и деятельность Абу Йусуфа, формирование налоговой системы в раннюю исламскую эпоху, экономическая и культурная жизнь, порядок использования земли и воды, внешняя политика в международных отношениях, а также его предложения по решению различных проблем. Социальные, политические и экономические проблемы рассматривались последовательно. Хотя тема широко анализируется посредством источников, относящиеся к юриспруденции, выводы сделаны на основе мнений, изложенных в “Китаб ал-харадж”.

В статье также содержится ценная информация о государственном управлении, истории и традициях

халифата. Работа “Китаб ал-харадж” была направлена на решение проблем, возникших в период расширения территории Исламского государства, вызванных определенными проблемами в разных странах, и Абу Йусуф написал ее, опираясь главным образом на правовую теорию Абу Ханифы, а также используя наиболее достоверные хадисы, высказывания сподвижников, применяемые им методы и правила. Как ученый-муджтахид, Абу Йусуф был вынужден заниматься важными религиозными вопросами своего региона, включая экономическую сферу. Работа “Китаб ал-харадж”, за которой последовали труды таких ученых, как Яхья ибн Адам, Абу ал-Аббас Мухаммад Катиб, Абу ал-Фарадж Кудам ибн Джафар, Наср ибн Муса АР-Роми, Хасан ибн Зияд, имеет особое значение среди одноименных книг и отличается от них своей научностью и скрупулезностью. Наряду с аналитическими данными о социально-экономической жизни, религиозно-философской и исламской налоговой системе, социально-политической ситуации на мусульманском Востоке в VIII-IX веках, культурно-просветительских связях во времена раннего Аббасидского халифата, изложенными в “Китаб ал-харадж” Абу Йусуфа, также излагаются взгляды ученого, основанные на экономической концепции идеи народного благосостояния и социальной справедливости, раскрываются философские аспекты экономических проблем.

Ключевые слова. Абу Йусуф, исламская экономика, экономическая мысль, юриспруденция, ханафитский мазхаб.

Abstract. In this article, the socio-economic views of Yaqub Abu Yusuf, a mujtahid scientist who left a huge mark in the history of Islamic thought and made a great contribution to the formation of the theoretical foundations of the Hanafi sect, are analyzed based on his work “Kitab al-kharaj”. “Kitab al-kharaj” is the first written source of the Hanafi school of Islamic teachings. His treatise on the problems of taxation is a book covering economic issues in the Islamic world, and was written by Abu Yusuf while he was serving as the chief judge of the Abbasid Caliphate in the late 8th century.

In the early period of Islam, Muslim economists were scholars of jurisprudence. The research of a number of economic and social issues of urgent importance for their time by Muslim scholars, relying on the rules of Islamic Sharia, had a great impact on the development of new knowledge. The book “Kitab al-kharaj” by the jurist Abu Yusuf, who was the chief judge during the reign of Harun al-Rashid, is a clear proof of this. In his book, he addressed not only the legal aspects of taxation, but also the issues of the state's economic policy.

The following article considers: Abu Yusuf's life and work, the formation of the tax system in the early Islamic era, economic and cultural life, the procedure for using land and water; foreign policy in international relations, and his proposals as a solution to various social, political and economic problems one by one. Although the topic is widely analyzed through sources related to the science of

jurisprudence, it is concluded based on the opinions presented in “Kitab al-kharaj”.

The article also contains valuable information about state administration, the history and traditions of the Caliphate. The work “Kitab al-Kharaj” is aimed at solving the problems that arose due to some issues in different countries during the expansion of the territory of the Islamic state. Abu Yusuf wrote this book based mainly on the legal theory of Abu Hanifa, as well as using the most reliable hadiths, the words of the companions, the methods and rules used by them. As a mujtahid scholar, Abu Yusuf had to deal with the important religious issues of his country, including the economic sphere. The book “Kitab al-Kharaj” is of special importance among the books written by Yahya ibn Adam, Abu al-Abbas Muhammad Katib, Abu al-Faraj Qudama ibn Ja'far, Nasr ibn Musa al-Rami, Hassan ibn Ziyad, differs from them in its scientificity and precision. Abu Yusuf's book “Kitab al-kharaj” contains analytical information about the socio-economic life, religious-philosophical and Islamic tax system, as well as the socio-political situation in the Muslim East in the 8th-9th centuries, cultural and educational relations during the first Abbasid caliphate. Abu Yusuf's views on the economic-philosophical aspects of the idea of public welfare and social justice are shown.

Key words: Abu Yusuf, Islamic economy, economic thought, jurisprudence, Hanafi sect.

KIRISH

Abu Yusuf yashagan davr islom olamida Ummaviylar va ilk Abbosiylar boshqaruvi davri hisoblanadi. Xalifalikda notinchliklar bo'lsa-da, biroq islom bilimlari muhiti saqlanib qolgan edi. Abu Yusuf o'z davrining siyosiy, diniy, ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhiti mahsulidir. Shunga ko'ra uning qarashlari aks ettirilgan fikrlar, muammo va takliflar uning ilmiy metodologiyasini aks ettiradi.

Abu Yusuf ummaviy xalifa Hishom davrida dunyoga kelgan. Hishom davri istilolar va urushlar keng tarqalgan davr edi. Uning davrida zaydiylar Yaman hududida hukumatga qarshi isyon ko'tardilar. Hishom davrida qo'zg'olonlar birin-ketin davom etdi. Xorijiyilar Mosul va uning atrofida yangi qo'zg'olonlarni boshladilar. Davlatning iqtisodiy inqirozi yuqori cho'qqiga chiqdi. Ayni vaqtda Ummaviylarga qarshi mafkurada bo'lgan Abbosiylar davlat noto'g'ri siyosat yuritayotgani haqida targ'ibot ishlarini amalga oshirdilar. Musulmon bo'lmagan aholi ham adolat istab abbosiylarni qo'llab-quvvatladilar.

Abbosiylar harakatining asosiy ishtirokchilari Xuroson arablari va Ummaviylarga qarshi kayfiyatdagi fors mavolilari edi. Biroq, Abbosiylar uchun eng asosiysi, arab millatiga mansub ekanligi emas, balki Hoshimiylar xonadoni avlodi ekanligi muhimroq sanalgan, chunki bu dalil xalifalikni boshqarishda

“Afzal ul-Bayt” (Payg‘ambar xonadoni vakili) ekanligini anglatardi (Ahmad Farras Oran, 2009:25). Bunday qarash Xuroson arablari va boshqa xalqlarning ushbu harakatdagi ishtirokida Abbosiylar kuchlarining o‘zagini tashkil etgan.

Uzoq davom etgan qo‘zg‘olon natijasida Ummaviylarning so‘nggi xalifasi Marvon (744-750) taxtdan tushirildi. Ummaviylarga qarshi qo‘zg‘olon Abbosiylar foydasiga hal bo‘ldi.

Shunday qilib, xulfofi roshidun davridan keyin hukmronlik qilgan islom davlatidagi birinchi sulola - Ummaviylar xalifaligi (661-750) Abbosiylar tomonidan qulatildi. Abbosiylar islom davlatining yangi hukmdorlari bo‘lishdi.

Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelishi bilan mamlakatda siyosiy barqarorlik ta‘minlandi, iqtisod taraqqiy etdi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Xalifa Mansur (754-775) mamlakatning Sharqiy mintaqalarida vujudga kelgan qo‘zg‘olonlarni juda ustalik bilan bostirdi. Yangi paydo bo‘layotgan boshboshdoqliklarga teran aql bilan yondashib, barcha ichki tartibsizliklarni tinchitdi va kuchli xalifalik barpo etishga erishdi (Ahmad Farras Oran, 2009:258).

Abbosiylar xalifaligining (750-1258) asoschisi Abu al-Abbos (750-754) hisoblansa-da, biroq ikkinchi xalifa Mansur (754-768) uning haqiqiy rivojlantiruvchisi edi. U xalifalikni tiklanishida fuqarolarning hayoti, ularning yashash tarzi va ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘proq e‘tibor qaratdi. Xalifalarning bunday oqilona siyosati jamiyatning gullab-yashnashiga, ijtimoiy o‘zgarishlarni qaror topishiga sabab bo‘ldi. Davlatni endigina idora qilishni boshlagan Abbosiylar deyarli bosqinchilik urushlari olib bormaganlar. Ularning asosiy diqqat-e‘tibori xalifalikka ilgari qo‘shib olingan hududlarni saqlab qolishga qaratilgan. Ilgarigi harbiy istehkomlar fuqarolik markazlariga aylandilar; yangi iqtisodiy, ma‘muriy, ilmiy, madaniy muassasalar, shu jumladan, vazirliklar yaratildi. Bu muassasalarning vujudga keltirilishi xalifalikda hunarmandchilik, savdo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning rivojlanishi, ularning nisbatan keng miqyosda o‘sib borishi misli ko‘rilmagan iqtisodiy o‘sishga va jamiyat hayotida ayrim kishilar qo‘lida boyliklarning to‘planishiga olib keldi.

Abbosiylar iqtisodiy hayotni tiklash uchun qulay muhit yaratdilar. Ularning iqtisodiy tizimi xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va erkin savdo munosabatlariga yo‘naltirilgan bozor mexanizmlariga asoslanardi. Shuningdek, tashqi savdoga alohida e‘tibor qaratdilar. VIII asrning oxiri IX asr boshlarida arab xalifaligi o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga chiqqan edi (Oguz Bal, 2014:6).

Abu Yusuf xalifalik soliq tizimining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan. Abu Yusufning soliq solish

muammolari to‘g‘risidagi “Kitob al-xaroj” risolasi islom olamida iqtisodiy masalalarni qamrab olgan birinchi risola hisoblanadi. U bu kitobni hijriy 174-182 yillarda Abbosiylar xalifaligining bosh qozisi bo‘lib ishlagan paytida yozgan.

Abbosiylar xalifaligi islom huquq va an‘analariga asoslangan holda boshqarilar edi. Bunda o‘sha davrda bosh qozi bo‘lgan Abu Yusufning xizmatlari kattadir. Uning xalifa Horun ar-Rashidga bag‘ishlab yozgan “Kitob al-xaroj” asarining muqaddimasida islomiy boshqaruv tizimi xulfofi roshidin va Umar ibn Abdulaziz kabi bo‘lishi aniq ta‘kidlab o‘tilgan.

Xalifa Horun ar-Rashid mamlakat aholisining hayoti va mol-mulki xavfsizligini ta‘minlashga, adolat bilan hukmronlik qilishga harakat qilgan hukmdor edi. U Imom Abu Yusufdan iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo‘yicha savollarga javob berishni, islom dinida soliq qoidalari qay tartibda bo‘lishi haqida so‘radi. Abu Yusuf bu savollarga javob berish maqsadida “Kitob al-xaroj” asarini yozdi. Bunda nafaqat davlat daromadlari va xarajatlari, balki turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham yoritib o‘tilgan.

Abu Yusufning shaxsiyat va uning ilmiy merosini, xususan uning el-ulus osoyishtaligi, fuqarolarning moddiy va ma‘naviy hayoti yo‘lidagi ulkan sa‘y-harakatlarini keng va mukammal o‘rganish asosida yangicha qarashlarni, bilimlarni shakllantiradi. Ayniqsa Abu Yusufning soliq tizimi ishlab chiqishi, soliq turlarini birma-bir aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bayon etishi, keyingi boshqaruv tizimida islom mamlakatlariga katta ko‘mak berdi.

U buyuk faqih va davlat arbobi edi. Abu Yusuf Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi va uning izdoshi bo‘lgan. Abu Hanifa vafotidan so‘ng uning ishlarini davom ettirgan va hanafiylikning keng tarqalishiga munosib hissa qo‘shgan. Abbosiy xalifalar Mahdiy, Hodiyy va Horun ar-Rashidlar davrida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Ularning barchasi uni e‘zozlagan. U xalifa Horun ar-Rashid davrida qozil-quzzot (bosh qozi) lavozimiga ko‘tarilgan.

Islom olamida Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo‘lgan, hanafiylik tariqatining asoschisi Abu Hanifaning shogirdi va izdoshi Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Ansoriy al-Kufiy hijriy 113 yil (milodiy 731 yil) Kufa shahrida tug‘ilgan (Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи, 2001:12).

Abu Yusuf xalifa Mahdiy (775-785) davrida 783 yil Bag‘dod shahri qozisi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Xalifa Horun ar-Rashid mamlakat qozil-quzzot (bosh qozi) lavozimi joriy etilib, bu vazifaga Abu Yusuf tayinlandi (Hendri H.A., 2018: 42).

Ma‘lumki, qozilik dastlab payg‘ambarimiz davrida joriy etilgan bo‘lib, u vaqtlarda qozilar kichik

masalalarni, jumladan uy-xo'jalik yumushlari, o'zaro kelishmovchiliklar kabi ishlarni ko'rib chiqardi. Odatda qozilarni xalifalarning o'zlari maxsus joylarga tayinlagan. Ular kichik-kichik ishlarni ajrim qilish bilan birgalikda o'sha yerdagi diniy hayotni bir maromda ushlab turgan. Lekin katta masalalarni, xususan, odam o'ldirish, yuqori lavozimli shaxsga suiqaasd qilish kabilarga nisbatan xalifaning o'zi xukm chiqargan. Abu Yusufga esa butun xalifalikdagi barcha qozilarni saylash va lavozimidan ozod etish, har qanday fiqhiy masalani yechish kabi huquqlar berildi. Bu holat xalifalikda hanafiylik mazhabining mustahkamlanishiga va uning keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

U fiqh ilmida ustoz Abu Hanifaning izidan borib, avvalo Qur'oni Karim va Sunnatga, keyin sahobalarning amallariga ergashdi. U ahli ra'yni ahli hadisdan ajratmadi. Tarixchilar ta'kidlaganidek, hanafiy mazhabining Abu Hanifadan keyingi eng buyuk faqih Abu Yusufdir.

Abu Yusuf hijriy 182 yil (milodiy 798 yil) hayotdan ko'z yumadi. Ibn an-Nadimning "al-Fixrist" asarida ta'kidlanishcha, uning Yusuf ismli o'g'li bo'lib, otasi vafotidan keyin uning ishlarini davom ettirgan va hijriy 192 yil vafot etgan. Abu Yusuf ba'zi manbalarda 40 ta, ba'zilarida 36 ta kitob yozgan deyiladi (Ibn an-Nadim, 2014:286).

Uning vaqt o'tishi bilan yo'qolgan qabri 1659 yil Safaviylar podshohi Sulaymonshoh tomonidan topilgan. Usmoniy sultoni Mehmed IV uning qabriga maqbara qurdirgan.

Abu Yusuf tomonidan ko'plab asar yozib qoldirilgan. Abu Yusuf yozgan asarlar ichida eng mashhur va muhimi "Kitob al-xaroj" asaridir. U "soliq kitobi" yoki "xiroj kitobi" deb tarjima qilinadi. Bu kitob Horun ar-Rashidning buyrug'iga ko'ra yozilgani asar muqaddimasida aytib o'tilgan. "Kitob al-xaroj" asari islom tarixida davlat xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda soliqlarning o'rni va roli, soliq turlari, miqdori, ularni yig'ish, to'plash, jamiyat va davlat ehtiyojlari uchun teng taqsimlash tartibi, fuqarolar va soliq yig'uvchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi musulmon huquqshunosligi normalariga bag'ishlangan asardir. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi, xalifalik tarixi va an'analari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

MUHOKAMA

"Kitob al-xaroj" asarining ahamiyati shundaki, birinchidan, xalifalikda davlat daromadining asosiy manbai bo'lgan soliq tizimini tartibga solishda Abbosiylar davlatiga katta yordam berdi, ikkinchidan, iqtisodiy sohada davlatning ijtimoiy faoliyatini

hanafiylik mazhabi qoidalari asosida amaliy hayotga tatbiq etish uchun sharoit yaratib berdi.

"Kitob al-xaroj" asarini yozishdan maqsad amaliy hayotda davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi munosabatlarning optimal variantini topishdir. Abu Yusuf hukumat oldidagi javobgarlikni bo'yniga olib uni dalillarga asoslangan holda yozgan. Bu asar kabi soliq masalalari mukammal yoritilgan asar musulmon davlatchiligi tarixida bo'lmagan.

"Kitob al-xaroj" asari ilk xalifalik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yoritilgan va bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan biri. Abu Yusufning qilgan ishi unda faqatgina soliq olish haqida yoritib o'tmay, balki katta ijtimoiy xarakterli masalalarga ham e'tibor qaratgan. Muallif uni yoritishda quruq nazariyaga tayanmagan, balki unda aniq faktik materiallar bilan dalillaganligi ahamiyatlidir. Shuningdek, u xalifalikdagi o'zgarishlarni ham hisobga olgan.

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari xalifa Horun ar-Rashid bergan masalalarga javoban yozgan kitobi bo'lib, unda xalifalikda amalda bo'lgan ko'p sonli soliqlar tahlili, soliqqa oid tartibotlar va unga amal qilinishi asosida uning mamlakat iqtisodiy hayotida ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Asarning kirish qismi xalifaga nasihat qilishga bag'ishlanib, uni yuksak ma'naviyatli va odil hukmdor sifatida o'z xalqi oldidagi vazifalarni sidqidildan ado yetishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu haqida "Kitob al-xaroj" asarida shunday deyilgan: "Alloh taolo amir ul-mo'mininga madadkor bo'lsin. U menga xiroj, ushr, sadaqot va boshqa soliqlar haqidagi kitoblarga nazar solib, unga amal qilishi uchun keltirib berishimni so'radi. Buning sababi, raiyatdan zulmni ketkazish, bu boradagi ishlarni to'g'ri tartibga keltirishdir (Imom Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Kufiy, 2021:35).

Alloh amir ul-mo'minidan rozi bo'lsin. Uni barcha xavflardan omon saqlasin. U mendan talab qilgan narsasini tushuntirib, sharhlab berishimni so'radi. Men uni tushuntirib, sharhlab berdim".

"Kitob al-xaroj" asarida mamlakatda davlat daromadining asosiy manbai bo'lmish yer soliqlarini tizimlashtirilgan uslubda tartibga solishda Abbosiylar imperiyasiga katta yordam berdi, shuningdek, moliyaviy sohada davlatning ijtimoiy faoliyatini hanafiylik mazhabi usul va qoidalari asosida yo'lga qo'ydi va shu yo'sinda amaliyotga tatbiq etish uchun sharoit yaratib berdi.

Abu Yusuf fath qilingan hududlarni saqlab qolish va ular bilan bog'liq muammolar hukmdorning asosiy tashvishi bo'lgan davrda yashagan. Abu Yusufning qarashlari uning o'sha paytdagi yer solig'i bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammoni aks ettiradi. Yer solig'i soliqning eng qadimgi va keng qo'llaniladigan

shakli hisoblanadi. Qadimgi davr, o'rta asrlar va hozirgi davrlarda ham biz barcha jamiyatlarda daromadning asosiy manbalaridan bir sifatida yer solig'ini uchratamiz. Mutaxassislar yer "tabiiy mahsulot" ishlab chiqaradigan yagona manba ekanligi to'g'risidagi kontseptsiyani ishlab chiqdilar va ularni moliyalashtirishning yagona yo'li yerga soliq solish ekanligini ta'kidlaydilar.

Rim va Sosoniylar hududlarini musulmonlar tomonidan zabt etilgan paytda yer solig'i yerga nisbatan belgilangan. Rim imperiyasida yerlar unumdorligiga qarab turli toifalarga ajratilgan.

Xalifa Umar (r.a) soliq yig'ishda Sosoniylar rejimini saqlab qolishni ma'qul ko'rdi. Bu tizim misaha deb nomlangan. Abu Yusuf bu tizimni zukkolik bilan o'rganib chiqdi va uning kamchiliklarini aniqladi. Uning fikricha, bu tizim xalifa Umar (r.a) davrida o'z samarasini bergan. Biroq u soliqni adolatli yig'ishga qarshi bo'ladi. Aftidan, u ushbu usulni davlat xazinasiga yillik kafolatlangan daromadni ta'minlash va kam ishlab chiqarish bahonasida dehqonlar soliq to'lashdan bosh tortganligini tekshirish maqsadida qabul qilganga o'xshaydi.

Xalifa Mansur davridan boshlab qat'iy belgilangan soliq tizimini o'zgartirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Xalifa Horun ar-Rashid soliq tizimini qayta qurish zarurligini tushunib yetgan edi. Abu Yusuf uning talabiga ko'ra butun soliq tuzilmasini o'rganib chiqdi va unga yangi soliq tizimni kiritishni maslahat berdi. U misaha tizimi hozirda samarasiz bo'lib qolganini isbotlab berdi.

Abu Yusuf yashagan davrda katta hajmda ishlov berilmagan yer maydonlar mavjudligini aniqladi. Bu serhosil yerlarni qayta tiklashga dehqonlarning imkoniyati yetarli bo'lmagan. Bunday vaziyatda hosilning belgilangan miqdoridan soliq olinishi soliq to'lovchilar uchun qulay bo'ladi. Abu Yusufning ushbu tizim bo'yicha yana dalili mahsulotlar narxlarining pasayish bilan bog'liq edi. Xalifa Mansur davrida narxlar tusha boshladi. Narxlarning tushishi soliq to'lovchilarni xavotirga solib qo'ydi, chunki davlat yerga belgilangan miqdordagi naqd pul solig'ini olishni istaganlar. Shuning uchun xalifa Mansur ulamolardan qat'iy soliq tizimini, ya'ni misahani o'zgartirishni so'rashdi. Abu Yusuf narxlarning o'zgarishi soliq to'lovchilarga, qat'iy belgilangan soliq davlat daromadlariga ta'sirini tushuntirdi. U aytdi: "Agar don narxi past bo'lsa, soliqqa tortiladigan donning belgilangan miqdori soliq puli dehqonlar tomonidan mahsulotni yetishtirish uchun sarflagan ishchi kuchidan oshib ketishi mumkin edi. Boshqa tomondan, belgilangan miqdordagi hosil natura shaklida hukumatga topshirilsa don narxining pastligi evaziga xazinaga tushadigan pul kamayadi. Chunki davlat kam daromad oladi va bu davlat xarajatlariga

ta'sir qiladi. Davlat sarf-xarajatlarini asosan naqd pul bilan to'lashini hisobga oladigan bo'lsak, bu davlatning soliqlar keladigan tushumiga ta'sir qiladi. Shunday qilib soliqlarni belgilangan tartibda yoki naqd pulda yoki belgilangan miqdordagi don miqdorida undirish hukumat va soliq to'lovchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin".

Abu Yusuf "Kitob al-xaroj" asarida xiroj solig'ining yangi usulini joriy etgan. Abu Yusufgacha bo'lgan davrda bosib olingan yerlarni soliqqa tortishda Umar (r.a) joriy etgan tartib bo'yicha amalga oshirilgan. Abu Yusuf Umar (r.a) hukmidan chetga chiqib, o'z risolasida yerning hajmidan emas, balki yetishtirilgan hosilni taqsimlashga asoslanadigan soliq usulini – muqosamani taklif etdi.

Abu Yusuf o'z asarida bu usulni taqdim etishdan oldin xalifa Umar (r.a)ning qilgan ishlarini tahlil etadi: "Men Savod hududidagi soliqqa tortish tizimi va uni to'plash usullarini o'rganib chiqdim hamda ulamolar bilan ushbu masalani muhokama qildim. Ular Umar (r.a) davridagi soliq tizimini davom yettirish mumkin emasligini ta'kidladilar", - dedi Abu Yusuf muammoni hal qilishda o'zining oqilona tahliliga tayangan holda. Abu Yusuf ushbu soliq usulini taklif etishda soha mutaxassislari bilan maslahatlashuvi natijasida kelgan.

Ammo Umar (r.a)ning amaliyotidan chetga chiqish oson emas edi. Chunki Umar (r.a) ham islom fiqhshunoslari fikri bilan kelishgan holda shu to'xtamga kelgan edi. Shuning uchun Abu Yusuf taklif etgan yangi tizimni tushunish uchun asarda keltirilgan dalillarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Abu Yusuf o'z taklifini quyida keltirilgan fiqhiy savollarni muhokama qilishga kirishdi:

1. Xalifa Umar (r.a) o'sha paytda yerga solinadigan xiroj solig'ini to'lashga qodir ekanligiga amin edi. Bunga keyingi banddan kelib chiqib xulosa qilinishi mumkin.

2. Xalifa Umarning nozirlari Xuzayfa va Usmon yerlardan soliq undirishdan qaytgach, Umar ulardan so'radi: "Siz yerdan qanday qilib soliq oldingiz? Ehtimol, siz ulardan me'yorida ko'proq to'lashga majburlagandirsiz?", Xuzayfa: "Men ortiqcha narsani qoldirdim", deb javob berdi va Usmon: "Agar xohlasam, olishim mumkin bo'lganidan ikki baravar ko'prog'ini olardim", dedi. Umar: "Yerdan soliq undirishda ehtiyot bo'linglar", dedi. Xalifa Umar (r.a) o'z nozirlariga ushbu savollarni berib, ehtimol u belgilagan soliq miqdori u erishmoqchi bo'lgan adolatli tartib aks ettiradimi yoki yo'qligiga shubha qilgandir. Ammo har ikkala nozirning ta'kidlashicha, ular yerdan me'yorida ko'proq soliq undirmaganlar, balki yerga belgilangan miqdordagi soliqni undirgan edilar. Abu Yusuf bu fikrni bildirayotganda yerga soliq to'lashda adolatli bo'lish

shartining mohiyatini ko'rsatmoqchi edi, ehtimol bunga xalifa Umar (r.a) davrida erishish mumkin bo'lgandir, biroq keyinchalik bu amalga oshmagan bo'lishi mumkin. Buni quyidagi bandda yanada oydinlik kiritiladi.

3. Xalifa Umar davrida ishlov berilgan yerlar yaroqsiz yerlarga nisbatan juda oz bo'lgan. Ishlov berilgan va ishlov berilmagan yerlarga belgilangan soliq miqdori dehqonlarni yerni ishlov berishga majbur qilgan bo'lsada, biroq xalifa Umar davridan keyingi yuz yillar mobaynida ham katta hududdagi ishlov berilmagan yerlar mavjud edi. Bu yerlarni dehqonlarning imkoniyatidan tashqari davlat katta xarajatlarsiz rivojlantirish mumkin emas edi. Shu sababli, yaqin yillarda bu qarovsiz yerlarni o'zlashtirish deyarli mumkin bo'lmay qoldi. Shuning uchun adolatni tizimni o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmadi.

4. Belgilangan soliq miqdori davlatga, xazinaga va soliq to'lovchiga zarar yetkazishi mumkin. Agar ma'lum bir yilda makkajo'xori juda arzon bo'lsa, ekinlarning belgilangan o'lchovi bilan yig'ilgan soliqtan olinadigan daromad davlat xarajatlarini qoplash uchun naqd pulga aylantirilganda yetarli bo'lmaydi. Boshqa tomondan, agar ekinlar narxi ko'tarilsa, davlat soliq to'lovchilar tomonidan qimmat narxda hisoblanishi mumkin bo'lgan hosildan voz kechishga tayyor bo'lmaydi. Bundan tashqari, qat'iy belgilangan soliq miqdori naqd yoki natura shaklida soliq to'lovchiga zararli hisoblanadi, chunki ular soliqlarning adolatsiz taqsimlanishiga va ularni amaldorlar tomonidan zulm qilinishiga olib kelishi mumkin.

5. Xalifa Umar yerga o'rnatgan soliq miqdori yakuniy ekanligini yoki o'zidan keyingi xalifa uni kamaytirish yoki ko'paytirish joiz emasligini aytmadi.

6. Xalifa Umarning Xuzayfa va Usmonga bergan savoliga e'tibor qilsak: "Ehtimol siz yerga me'yorida ko'proq haq undirgandirsiz?". Agar ular Umar (r.a) ga yerdan bunday miqdordagi soliqlarni to'lashi mumkin emasligi to'g'risida xabar berganlarida, u xiroj soliqlarini kamaytirgan bo'lar edi. Demak, soliq yerni ko'tarishi mumkin bo'lgan narsalarga solingan va bu o'zgarishi mumkin.

7. Hukmdor xiroj soliqlarini kamaytirishga yoki ko'paytirishga haqli, lekin u yerga ortiqcha soliq yuklashdan saqlansin.

8. Xalifa Umar o'zining noziri Ya'lo ibn Umayyani Najronga yuborganida, unga yerlarni ularga taqsimlangan soliq tizimi bo'yicha topshirishni buyurdi: makkajo'xori hosili va palma hosili uchun soliqning uchdan ikki qismi, tabiiy sug'oriladigan yerlardagi daraxtlar va sun'iy sug'oriladigan yerlardan uchdan bir qismi. Ushbu ikki misol, hukmdorning soliq to'lovchilarning imkoniyatlariga muvofiq, odamlarga zimmasiga yuklatadigan narsalarning majburiyatini o'z

zimmasiga olishini ko'rsatadi.

9. Payg'ambar (s.a.v) Xaybarni zabt etganida, u yerdan xiroj solig'ini pul shaklida olmagan. U yerni yahudiy dehqonlarga kelishuv shartnomasiga ko'ra hosilning yarmini soliq sifatida berish sharti bilan bo'lib berdi.

10. Xalifa Umar ibn Abdulaziz o'z amirlaridan biri Abduhamid ibn Abdurahmonga yerlarni ko'zdan kechirishni buyurdi va unga ishlov berilmagan yerga ishlov berilgan yer kabi munosabatda bo'lmalikni buyurdi. Avvalo yerning tuprog'i o'rganilishi kerak va agar u yaxshilansa unga nima ekish lozimligiga qarab soliq undirilishi lozim. O'zlashtiriladigan yerga nisbatan xirojni joriy etishda ehtiyotlik bilan hal qilinishi kerak. Ayol xizmatkorlar yoki islomni qabul qilganlar tomonidan ishlab topiladigan daromadlarga xiroj qo'llanilmasligi lozim (Hendri H.A., 2018:52-53).

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda Abu Yusuf davlat g'aznasi uchun eng maqbul soliq tizimi va soliq to'lovchilarga nisbatan adolatli bo'lgan muqosama – yetishtirilgan hosilning miqdoridan kelib taqsimlash tizimini taklif qildi.

Abu Yusuf uchun soliqlarni yig'ishning qat'iy tizimi samarasiz va adolatsiz bo'lib, soliq to'lovchilar uchun ham, hukumat uchun ham o'z nuqsonlariga ega edi. Shunday qilib u hukmdorga qishloq xo'jaligi mahsulotlariga mutanosib soliq tizimini joriy etishni taklif qildi. U shunday dedi: "Mening fikrimcha, xazinaga ko'proq daromad tushishi hamda soliq yig'uvchilar tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan adolatsizlikni oldini olish uchun eng maqbul soliqqa tortish tizimi - bu qishloq xo'jaligi mahsulotlariga mutanosib soliqqa tortish tizimi, ya'ni muqasamadir. Bu tizim soliq to'lovchilarga nisbatan adolatsizlikni kamaytiradi va har qanday holatda ham xazinaga foyda keltiradi".

U soliqlarni naqd pul yoki natura shaklida yig'ishni taklif qiladi. Shuningdek, bu tizimga ko'ra narxlar o'zgarishi davlat daromadlariga zarar yetkazmasligini va dehqonlar daromadini kamaymasligini ta'kidlaydi. Chunki yangi tizimga ko'ra soliq egalik qilinadigan yerlarning umumiy maydonidan qat'i nazar, hosilning umumiy miqdoriga qarab hisoblab chiqiladi. Bu yerga yaxshi ishlay olmaydigan dehqonlar uchun yengillik bo'ldi. Bundan tashqari, u dehqonlarni o'zlashtirilmagan va qarovsiz yerlardan foydalanishga va yangi tizim asosida qo'shimcha daromad olishga ishontirdi. Abu Yusuf yangi tizim davlatning soliqtan tushadigan daromadlari ko'payishini ta'kidladi. Shuning uchun u davlat dehqonlarga yaxshi sharoit yaratish uchun yangi kanallar qazishi, eski kanallar suv yo'llari tozalashi va zaruriy ishlarni amalga oshirishi lozimligini qat'iy tavsiya qildi. Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini

mulohaza qilar ekanmiz, u soliq manbai sifatida yerni emas, balki yerdan olinadigan daromadni afzal ko'rgan. Ushbu masala iqtisodchilar o'rtasida har doim muhokamali mavzusi bo'lib kelgan. Ular qaysi biri samaraliroq mol-mulkni soliqqa tortishmi yoki mulkdan tushadigan daromadnimi? Abu Yusufning bu boradagi qarashlarini o'rganib shuni aytishimiz mumkinki, u soliq manbai sifatida mulkdan tushadigan daromadni tanlagan.

Abu Yusuf soliq yig'ish, soliqni boshqarish va sarflash davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi. U barcha soliqlarni vazirlik tomonidan belgilashni tavsiya qiladi va hech qanday soliq ma'muri soliq solinadigan yerlarning soliq miqdori va holatini o'zgartirishga haqli emasligi ta'kidlaydi. Shuningdek, o'sha davrda soliqlarni yig'ish dehqon – qishloq hokimi tomonidan amalga oshirilgan holatlar ham bo'lgan. Qabala deb nomlanuvchi tizim odatda soliq yig'ish qiyin bo'lgan chekka hududlarda qo'llanilgan. Tizim bo'yicha ushbu hudud to'lashi kerak bo'lgan soliq hudud hokimi tomonidan oldindan to'langan. Keyinchalik u aholidan tegishli soliqlarni yig'ib olgan.

Ushbu soliq tizimi Abu Yusuf davrida xalifalikning ba'zi joylarida amal qilgan. Biroq u bu tizimni qat'iy qoralaydi va hukmdorga o'sha hudud aholisidan ma'lum miqdordagi daromad olish uchun hududning zodagonlariga bunday huquqni bermaslikni maslahat berdi. Uning ta'kidlashicha, soliqni oldindan to'lab bergan kishi odatda kerak bo'lganidan ko'proq soliq undiradi. Bu soliq to'lovchilarga zarar yetkazadi va ko'proq soliq to'lashga majbur qiladi.

Abu Yusuf bu tizimni qachonki hudud aholisi o'zlari biror kishini soliq yig'uvchi sifatida qabul qilgan taqdirdagina ma'qullagan. Bunday holatda hukmdor soliq to'lovchilarga foyda keltirishi va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga yordam berishini hisobga olishi zarur bo'ladi.

Ushr solig'i ham yer solig'iga hisoblanib, uning miqdori yerning holati va sug'orish tizimiga qarab o'ndan bir yoki uning yarmi, yigirmadan bir qili belgilangan. Ushr solig'i quyidagi yerlardan undiriladi: musulmonlar qo'lidagi yerlar, Arabistondagi musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar qo'lidagi yerlar, qati'a yerlari va qayta ishlangan yerlar. Ushr solig'ini o'rnatilgan miqdorda olinishini asoslash uchun Abu Yusuf quyidagi takliflarni keltiradi:

Soliq solinadigan yerlar musulmonlarga islomiy istilolardan oldin egalik qilgan Arabistondagi yerlar kiradi. Shuningdek, islom davlati tomonidan bosib olingan hududlardan musulmonlar sotib olgan yerlar ham kiradi. Bunday turdagi yerlar Ummaviylar va Abbosiylar davrida rivojlangan, biroq xalifa Umar (r.a)

buni ma'qul ko'rmagan edi. Umar (r.a) hukmronligi davrida Arabistondan tashqaridagi yerlarni musulmonlar tomonidan sotib olishga yo'l qo'yilmaganligining sababi, bu hududlardagi barcha yerlar musulmonlarning umumiy mulki sifatida qabul qilinganligidir.

Bu yerlar tabiiy ravishda, yog'ingarchilik yoki kanallar bilan sug'oriladigan bo'lsa, hosilning o'n foiz miqdorida ushr solig'i olingan. Agar sug'orish ishlari sun'iy ravishda, masalan, ishchi kuchini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilsa yoki yer qazish va ishlov berishda qo'shimcha mehnatga muhtoj bo'lib, ortiqcha xarajatlarga olib keladigan bo'lsa, yarim ushr, ya'ni besh foiz miqdorda soliq olingan. Bu qoida Payg'ambar (s.a.v) davrida belgilangan edi. Biroq, bu miqdor Abu Yusufning fikriga ko'ra, Arabistondan tashqaridagi musulmonlar yerlariga nisbatan o'zgarishi mumkin. Mana shu yerda hanafiylarning fiqhga yondashuvini amalda ko'rsak bo'ladi. U Payg'ambar (s.a.v)ning bu bo'yicha qarori faqat Arabistondagi yerlarni qamrab olgan deb hisoblagan, chunki uning davrida boshqa yerlar hali zabt etilmagan edi. U Iroq yerlariga boshqacha munosabatda bo'lish, ushrdan yuqori miqdorda soliq olish va agar u bu borada Payg'ambarning odatlaridan chetga chiqilsa, uni qonuniy ravishda asoslash kerakligini aytib o'tadi.

Arabiston hududiga nisbatan soliq tartibi alohida qayd etiladi, chunki soliq miqdori Payg'ambar (s.a.v) tomonidan belgilangan. Bu fikrni Abu Yusuf qo'llab-quvvatlab, Hijoz, Makka, Madina, Yaman va Payg'ambarimiz fath qilgan Arabistonning boshqa yerlariga nisbatan soliq miqdorini o'zgartirmaslik kerakligini aytgan (Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куффи, 2001:183). Biroq yerlarni sug'orish holatiga qarab ushr yoki yarim ushr soliq solinishi mumkin edi. Chunki bu yerlar ushrlar hisoblangan. Ammo boshqalardan farqli o'laroq, islom dinini qabul qilmagan arab mushriklariga boshqacha munosabatda bo'lingan, ular jizya to'lamagan, ular yo islomni qabul qilishi yoki qilichdan o'tkazilishi kerak bo'lgan. Ularga xiroj solig'i qo'llanilmagan. Biroq bu yerdagi nasroniy va yahudiylar jizya solig'i va o'z yerlaridan ushr solig'i to'lashgan.

Abu Yusuf o'sha davrda muhim soliq manbai bo'lgan savofi - o'zlashtirilmagan yerlarga e'tibor qaratdi. Bunday yerlarga quyidagilar kirgan: Sosoniylar shohi va uning oilasining yerlari, urushda o'ldirilgan, biroq merosxo'ri bo'lmagan yerlar, dushman yurtiga qochib ketganlarning yerlari, suv osti yerlari, pochta aloqasi binolari va hech kimga tegishli bo'lmagan, biroq ishlov berilsa foydalanish mumkin bo'lgan yerlar.

Bunday yer biror kishiga tortiq etilsa, u qati'a deb atalgan. Abu Yusuf davlat hukmdori kishilarni islom dini yo'lidagi xizmatlarini qadrlash uchun savofi yerlar bilan mukofotlashga haqli ekanligini ta'kidlagan.

Abu Yusuf bu yerni tarqatishdan maqsad kishilarni hukmdordan roziligini ko'rsatish va unga berilgan yerdan samarali foydalanishni kafolatlash deb hisoblaydi. U yerga egalik qilishda barqarorlikni ta'minlashni va hukmdorlarning ushbu hukmlarni o'zgartirishga bo'lgan erkinligini cheklash maqsadida, yerni berish to'g'risidagi hukmni undan keyingi hukmdor boshqa bekor qilmasligi kerakligini ta'kidlagan. Yerni qaytarib olish mumkin emas edi, biroq, qati'a olgan shaxs yerni sotish yoki meros qilib o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Bu fikrni tasdiqlash uchun Abu Yusuf, agar yer qaytarib olinadigan bo'lsa, demak, bu birovni mulkini o'g'irlagan va o'g'irlangan mulkni boshqasiga berishga o'xshaydi, deb aytib o'tadi.

Abu Yusufning fikricha, qati'a yerlaridan ushr solig'i olinishi lozim. Ammo u hukmdorning ixtiyoriga ko'ra og'irroq soliq solinishi mumkin. Masalan, ushning ikki baravari, yarim ushr yoki xiroj solig'ini olinishini keltirib o'tadi. Og'irroq soliqni qo'llab-quvvatlash orqali Abu Yusuf yerni kishilarga pul mablag'isiz berilishiga yo'l ochgan edi. Boshqa tomondan, unga soliq to'lovchi nuqtai nazaridan qarasak, ehtimol bu yerlarning foydaliligi pastligi va uning unumdorligini oshirish uchun qo'shimcha mablag' sarflanishi, sug'orish kanallarini qazish, qo'shimcha binolar qurish va yerni qayta ishlash xarajatlarini o'z zimmasiga olganligi tufayli bo'lishi mumkin.

Yer bilan bog'liq soliq va iqtisodiy samaradorlik munosabatlari to'g'risida fikr yuritir ekan Abu Yusuf o'zlashtirilmagan va foydalanilmayotgan yerlarga nisbatan qayday soliq siyosati eng maqbul ekanligiga e'tibor qaratgan. Abu bunday yerlarga hech qanday qurilish olib borilmagan, o'zlashtirish alomatlari kuzatilmagan, turli bog'lar, qabristonlar, o'rmonlar, chorva yaylovlari va hech kimga tegishli bo'lmagan yerlar kiritgan (Sabahiddin Azmi, 1995:72-74). Agar biror kimsa bunday yerlarni qayta tiklamoqchi bo'lsa, hukumatdan ruxsat olgan holda uni qayta tiklasi uning qonuniy egasiga aylanadi. agar ruxsatnomasi bo'lmasa, davlat undan bu yerni tortib olishi va boshqa biror kishiga tortiq qilishi mumkin bo'ladi.

Qayta tiklangan yerlar ishlov berilgandan keyin soliqqa tortishda uning toifasiga e'tibor qaratiladi. Agar u ushr yerlari toifasiga kirsas, ushr to'laydi, agar xiroj yeri bo'lsa, xiroj solig'i to'laydi.

Xalifaning ruxsatisiz hech kim soliqdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan. Shuningdek, xiroj toifasidagi yerni ushrlar yerga yoki aksincha ushrlar yerni xirojli yerga o'tkazishga ruxsat berilmagan. Biroq ushr yeriga egalik qiluvchi kishi xirojli yerni sotib olsa, u ikki yerni qo'shib undan ushr to'laydi yoki aksincha xirojli yerga egalik qiluvchi kishi ushr toifasidagi yerni sotib olsa, u ikki yerni qo'shib xiroj solig'ini to'laydi.

Bundan tashqari, Abu Yusuf soliq to'lashda soliq to'lovi uchun mas'ul shaxsni o'ziga yuklatilgan hududdan soliqlarni o'z vaqtida yig'ishni tavsiya qilgan. U soliqlarni oldindan to'lanishiga qarshi bo'lgan. Chunki soliqlarni oldindan yig'ib olish Ummaviylar va Abbosiylar davrida keng qo'llanilardi. Agar soliqlar oldindan to'lansa bu davlat g'aznasi uchun oson va foydali bo'ladi, biroq bu holat nojo'ya oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday holatda soliq to'lovchi ko'proq soliq to'lashi mumkin, bu esa adolatsizlikka olib keladi. Abu Yusuf bunday tizimni butunlay bekor qilishni tavsiya qilgan.

Abu Yusuf boshqa turdagi mahsulotlardan soliq to'lash bo'yicha o'z qarashlari bildirgan. Masalan, shakarqamish, o't-o'lan, somon, xurmo novdalari, o'tin, neft, smola, simob kabi mahsulotlardan soliq olmaslikni, dengiz mahsulotlaridan esa beshdan bir qism miqdorda xums to'lashlikni taklif qilgan (Imom Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Kufiy, 2021:33-34).

Abu Yusufning soliq manbalari va miqdoriga munosabati yerlarni soliqqa tortish bilan cheklanib qolmagan. U zakot solig'ini bayon qilishda hayvonlar miqdoriga nisbatan chegarani ko'rsatib o'tadi. Zakot solig'i asoslari va miqdorini belgilashda Abu Yusuf Quro'ni Karim va sunnatga muvofiq bo'lgan shariat qoidalariga e'tibor qaratadi.

Asarda "zakot" atamasi "sadaqotlar" deb keltirilgan. Abu Yusuf shunday deydi: "Ey amir, (Horun ar-Rashidni nazarda tutgan holda) sen sadaqotlarni yig'uvchilarga buyurki, ular biror kimsadan uni qanday holatda olgan bo'lsa, shunday holatda kishilarga bersinlar. Ana o'shanda Rasululloh (s.a.v) ning sunnatiga va undan keyingi xalifalarning amallariga muvofiq ish tutgan bo'lasan. Kimki, sunnatga amal qilsa, yetarlicha ajr va mukofot oladi, kimki, unga amal qilmasa, yetarlicha tanbeh va dashnom oladi va u dashnomlar unga boshqaruvda qiyinchilik beradi" (Sabahiddin Azmi, 1995:78).

Zakot chorvadorlardan muhtojlar foydasiga olingan. Ayrim hollarda davlatga pul o'rniga boshqa moddiy boyliklar ham berilgan. Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida zakot olinishi lozim bo'lgan chorva mollar miqdori belgilab o'tilgan. "Sen mendan, ey e'tiqodli amir, tuya, sigir, kichik shoxli mol, otlardan sadaqot (zakot) uchun qancha miqdorda va qay tarzda soliq yig'ish kerakligi haqida so'ragan eding. Sen muhtojlar foydasiga soliq yig'uvchi kishiga shunday farmon etki, ey e'tiqodli amir, u kimlar soliq to'lashi kerak va ehtiyoji bo'lgan kimlarga soliqdan berish kerakligini bilsin hamda bu jarayon Rasulullohning sunnati va undan keyingi xalifalarning tajribasiga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Bilginki, sunnatga to'g'ri amal qilinsa, u uchun ajr-mukofotga sazovor bo'ladi va bu sunnat

bilan boshqarilayotgan xalq tomonidan ma'qullanadi. Shu bilan birga, kimki sunnatga muvofiq ish tutmasa, bu uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Buning oqibatida hukumatning obro'sizligi shuncha ortadi. Senga Payg'ambarimiz hadislaridan keltirib Allohga duo qilib so'raymanki, zimmangizga yuklatilgan vazifani Payg'ambar sunnatiga rioya qilgan holda, boshqaruv va hatti-harakatlarni amalga oshirishda madadkor bo'lsin va bu bilan ajr-mukofotga sazovor qilsin" (Imom Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Kufiy, 2021:112).

Zakot tushumini taqsimlash masalasida "Kitob al-xaroj" asarining zakot bo'limida Abu Yusuf shunday deydi: "Zakot daromadlarini boshqa soliqlardan olinadigan daromadlar bilan aralashtirilmaslik lozim, zakotdan tushadigan daromadlar Qur'oni Karimda nazarda tutilganidek taqsimlanishi va u qaysi hududdan yig'ilgan bo'lsa, o'sha yerlik mahalliy aholi uchun sarflanishi kerak. Agarda zakotning ma'lum bir qismi mahalliy aholidan ortsa, boshqa mintaqaga ham tarqatilishi mumkin. Zakotni bunday taqsimlash avvalo yo'l xarajatlarini va soliq miqdori kamaytiradi.

Biroq zakot yig'uvchilarga Qur'oni Karimda aytilgani kabi o'zlarining ulushlari berilishi kerak, agar ularga berish uchun yetarlicha miqdor bo'lmasa, u o'z ehtiyojlarini qoplash uchun umumiy yig'ilgan zakotdan foydalanishi mumkin bo'ladi. Xalifa zakotni to'g'ri taqsimlashi va uning miqdorini belgilab berishi lozim. Abu Yusuf bu bilan soliq yig'uvchilar tomonidan ortiqcha soliq olinmasligi hamda ularning tushumlari kam bo'lsa axloqiy xavfni kamaytirish bo'lgan.

Zakot yilning ma'lum bir vaqtida (ular egasining qo'liga kelgan vaqtida) poda yig'ilganda hisoblangan. Qachonki chorva-mol bir yil to'lgandagina sadaqa olingan. Yil boshlangandan keyin tug'ilganlari birinchi yil uchun hisobga kiritilmagan va ikkinchi yildan boshlab hisoblangan. Chunki ular bir yil davomida to'liq yashagan bo'lishi kerak.

Abu Yusuf qozilar va amaldorlarning maoshlari davlat xazinasidan to'lanishi, agar ular zakotni yig'ishda ishtirok etmagan bo'lsalar, ularga zakot tushumidan pul to'lanmaslik kerakligini aytadi. Bu ularning viloyatlardan keladigan daromadlarga bog'liqlikni oldini oladi va xalifalikda aholining kerakli xizmatlarni olishini ta'minlaydi. Abu Yusuf soliqqa tortishda adolat tamoyillariga qat'iy amal qiladi. Adolatlilik, soliq kitoblarida belgilanganidek, foyda olish uchun tatbiq etilmasligi kerak. Soliqni olishdan maqsad, soliq to'lovchilarga davlat tomonidan yaxshi sharoitlarni yaratish va hayot faoliyatini yaxshilashni ta'minlashdir. Abu Yusuf davlat boylarga, kambag'allarga, qashshoqlarga soliq miqdoridan qat'iy nazar bir xil xizmat ko'rsatilishi shartligini ta'kidlaydi.

Garchi bu diniy soliq doim ham xazinani to'ldirishning asosiy manbai hisoblanmagan bo'lsa-da, mutaxassislar orasida islomiy soliq tizimi, odatda, zakot bilan esga olinadi. Xususan, Payg'ambar (s.a.v) zakot yig'uvchilarni shaxsan o'zlari tayinlaganlar. Bir qator qabilalarning Payg'ambar (s.a.v) vafotlaridan keyin mazkur soliq turini to'lashni rad etishlari, xalifa Abu Bakr (r.a) tomonidan harbiy yurishlarni tashkillashtirilishiga sabab bo'lgan.

Umar (r.a)ning xalifalik davrlarida zakot yig'ish tizimi qat'iy belgilab qo'yildi. Zakot yig'ilgan joyida taqsimlanadigan bo'ldi. Xalifa Umar (r.a) tomonidan soliq yig'ish va zakotni taqsimlash tizimida islohotlar o'tkazilganidan keyin ham, u hali mukammallikdan yiroq edi.

Abu Yusuf musulmonlar uchun zakot solig'ini tartiblab bergan bo'lsa, musulmon bo'lmaganlar uchun jizya solig'ini ham ko'rib chiqdi. Xuddi zakot kabi jizya solig'ining shariatga muvofiq asosi va miqdorini aniqlashtirdi. Jizya soliq bo'lishiga qaramay, soliq to'lovchining to'lov qobiliyatini hisobga olish kerakligini ta'kidladi: boylar uchun yillik 48 dirham, o'rta aholi uchun yillik 24 dirham, kambag'allar uchun 12 dirham. Agar boylik darajasi to'g'risida tortishuvlar yuz berganda va aniq dalillar bo'lmasa, soliq to'lovchidan uning muqaddas kitobiga binoan qasam ichishi kifoya qilgan. Shuningdek, boshqa ba'zi qoidalar bor edi, masalan, jizya marhum vafot etgach uning bir yil oldingi solig'i chegirib qolinishi, qarz evaziga islomni qabul qilgach to'lamasligi mumkin bo'lgan (Пахмонов. А.Р., Рузиев Р.Ж., 2010:183-184).

Jizya boshqaruvida Abu Yusuf muloyimlikni alohida ta'kidlaydi. Musulmon bo'lmaganlar ozchilikni tashkil etganligi sababli, qozi va davlat ishlarini yurituvchi jamiyatda ijtimoiy tenglik va totuvlikni ta'minlash uchun ushbu fikrlarning muhimligini ta'kidlagan.

Chegara bojxonalardan o'tishda tovarlarga soliq solish barcha mintaqalarda savdo boshlangandan beri amal qilib kelinadi. Masalan, o'rta asrlarda Yevropada turli quruqlik va suv yo'llar, ko'priklar va boshqa xizmatlarga qarab o'tayotgan tovarlardan boj undirish huquqi tayinlangan lordlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular savdogarlarni qaroqchilardan himoya qilishgan. Islomdan oldingi davrlarda arablar Vizantiya va Sosoniylar hududlarida savdo karvonlari bilan o'zlarining mollarini sotishar edilar. Xalifa Umar (r.a) xalifalik hududida musulmon va dor ul-harb mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiq faoliyati tobora ko'payib borayotganini kuzatib, chegara bojxonalarda savdo-sotiq mollariga boj to'lovlarini kiritishga qaror qilgan edi. Dastlab musulmonlar yeriga kelgan dor ul-harb savdogarlaridagina boj yig'implari olingan bo'lsa, musulmon va zimmiy savdogarlaridan boj olinmagan.

Ammo ichki va tashqi savdoning kuchayishi natijasida xalifa Umar (r.a) ushur solig'ini joriy qilgan. Aslida savdo to'lovi ham savdogarlar, ham iste'molchilar manfaatlari uchun ziddir. Chunki savdogarlar boj miqdorini qoplash uchun tabiiyki mahsulot narxlarini ko'tarishi mumkin, bu alal-oqibat iste'molchi zimmasiga tushadi. Xalifa Umar (r.a) buni tushunib, zaruriy tovarlarga, masalan zaytun, bug'doy kabi iste'mol tovarlariga 5% miqdorida boj to'lashni joriy etdi.

Abu Yusuf bojxona to'lovi masalasini uzoq muhokama qildi. Chunki bojxona to'lovi bu davrga kelib asosiy daromad manbalaridan biri edi. Abu Yusuf bojxona to'lovlari haqida o'z kitobda boshqaruv tizimiga e'tibor berishdan boshlaydi: "mening fikrimcha, siz halol va taqvoli amaldorlarni bu lavozimga topshirishingiz kerak. Siz ularning ishlarini tekshirib turishingiz, jinoyat qilganlarni ishdan bo'shatishingiz va ortiqcha to'lovlarni o'z egalariga qaytarishingiz, o'z vazifalarini halol va adolatli bajarganlarni mukofotlashingiz kerak" (Imom Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Kufiy, 2021:145). Shundan so'ng, u soliq miqdori, soliq manbai, soliq chegarasi va soliqqa tortish qoidasini keltirib o'tadi. U bojxona to'lovlari iste'mol tovarlari uchun emas, balki faqat savdo uchun olib kelingan buyumlardan olinishi kerakligini tavsiya etgan.

Sotish uchun mo'ljallanmagan tovarlardan boj olinmagan. E'tiborlisi, biror kishi bu mollarni sotish uchun olmaganligini aytib o'z diniga ko'ra qasam ichishi yuqoridagi imtiyozdan foydalanish uchun kifoya qilardi. Biroq, bojxonachilar shaxsiy ehtiyojlar uchun qancha miqdordagi tovarlarning o'tishi mumkinligiga e'tibor berishlari kerak.

NATIJA

Abu Yusuf kitobida mamlakatda turli huquq va imtiyozlarga bir necha bor to'xtali o'tgan. Masalan, Kitob ahlining diniy bayramlarini o'tkazish, cherkovlar, ibodatxonalar va monastirlarni qurish, muqaddas kitoblari bo'lmagan odamlar, o'g'irlik va axloqiy jinoyatlar, xoinlik va josuslik kabi tadbirlar. Ushbu masalalarning barchasi soliqqa tortish yoki davlat moliyasi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, ular Abu-Yusufning ta'kidlashicha, davlatning huquqiy asoslari uchun juda muhimdir. Demak, Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asari faqat "er solig'i" bilan bog'liq masalalar emas, jamiyat hayotini tartibga soladigan boshqa masalalarga ham ahamiyat bergan.

Abu Yusuf yerlarni ijaraga berishga e'tibor bergan, xususan, o'zlashtirilmagan joylarni ijara asosida tiklashga alohida to'xtaldi. Bu masalada Abu Yusufning qarashlari Hijozdagi fiqh ulamolarning fikrlaridan farq qilgan.

Abu Yusuf o'zaro sheriklik orqali ijaralarga ruxsat beradi. U sheriklikda kimdir o'z mablag'i bilan, kimdir o'z mehnati va tajribasi bilan sherikka aylanadi. Ular o'zaro sheriklik bitimini tuzishlari lozim bo'ladi. Olinadigan foyda, garchi hali qancha bo'lishi noma'lum bo'lsa ham, foyda va zararni teng taqsimlashga asoslanadi. Bunday sheriklik bitimi fiqh ulamolari tomonidan qabul qilingan. Abu Yusufning fikriga ko'ra, unumsiz yerlar, bog'lar va boshqa daraxtzorlarni ijaraga berish sheriklikka o'xshaydi. Abu Yusuf ijara shartnomalarining turli shakllarini aytib o'tadi, unda sheriklar o'rtasidagi munosabatlar va ulardan undiriladigan soliq miqdori bayon qilingan. Uning tasnifidan ko'rinish turibdiki, Abu Yusuf ijara ko'lamini kengaytirish orqali ba'zi holatlarga ruxsat bergan. U sheriklar o'rtasida bitim tuzishdan oldin shartnoma shartlari bo'yicha aniq bo'lishi kerak degan printsipdan voz kechmagan holda jamiyat manfaatlarini ham hisobga olish kerakligiga e'tibor bergan.

Abu Yusuf o'z e'tiborini o'zlashtirilmagan yerlarni tiklashga qaratgan. Uning fikriga ko'ra bunday turdagi yerlarning egasi davlatdir. U hukmdorga bunday yerlarni o'zlashtiradigan va rivojlantiradigan kishiga mulk sifatida berishni taklif qildi. Bunday yerlar iqto' deb ataladi. Abu Yusuf bunday turdagi yerlarni o'zlashtirish odamlarning hayotini yaxshilaydi va davlat iqtisodiyotini rivojlantiradi deydi.

Demak, Abu Yusuf egasiz bo'lgan va o'zlashtirilmagan yerlarni ishlov beradigan kimsaga iqto' sifatida berish hukmdorning vakolati deb hisobladi hamda agar o'sha yer xiroj yer bo'lsa xiroj va ushrlar yer bo'lsa ushr solig'i to'lashi kerakligi ta'kidladi. O'zlashtirilmagan yer bilan bog'liq vaziyatda Abu Yusuf, uni tiklagan har bir kishi uning egasi bo'lishini aytgan. Tiklash deganda yerni shudgorlash, ekin ekish, sug'orishni nazarda tutadi va bundan yer egalik qiladigan kishi yer solig'ini to'lashini aytadi. Biroq, agar kishi bunday yerga davlat tomonidan egalik qilsa yoki uni qayta tiklash orqali uning egasiga aylansa, u ushbu yerni rivojlantirish huquqiga ega bo'ladi, agar u yerga yaxshi e'tibor bermasa, uning yerga bo'lgan da'vosi bekor bo'ladi. Bundan xulosa shuki, o'zlashtirilmagan va egasiz yerlarni qayta tiklash va rivojlantirish islomda kishilarning yaxshi yashashi va davlat iqtisodiyotining o'sishiga da'vat etilgan. Shuningdek, Abu Yusuf yerni qayta tiklashda boshqalarga zarari tegmaslik tamoyiliga katta e'tibor qaratdi. Agar o'zlashtirilmagan yerni qayta tiklash biror kimsaga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, hukumatdan ruxsat olish kerakligini ta'kidladi.

Katta daryolardagi orollar tiklanishi to'g'risida u shunday deydi: "Agar bu orollarning tiklanishi egalariga zarar yetkazsa yoki bu daryodan o'tib ketadigan qayiq'larga to'siqlar tug'dirsa, u holda hukumat uni hech

kimga berishga haqli emas. Bunday faoliyat yerlarning unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini va soliqlardan olinadigan daromad kamayishini ta'kidlagan (Imom Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Kufiy, 2021:138).

Payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnati va xulofoi roshidin amallariga binoan Abu Yusuf o'rmonlar, o'tloq va yaylovlar kabi tabiiy manbalarni barcha erkin foydalanishini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, qishloq aholisi suv va o'tloqlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega emaslar, shuningdek, bu tog'larda, dalalarda, adirlarda o'sadigan hech kim tomonidan ekilmagan mevalar ham tegishlidir.

Abu Yusuf bu yerlar jamoat yerlaridir, shuning uchun hech qanday cheklashsiz umumiy manfaat uchun ishlatilishi mumkin degan fikrda. Biroq, o'rmon biror kishi yoki qishloq aholisi tomonidan o'zlashtirilgan taqdirda, egalarining roziligisiz o'tin kesish taqiqlanadi. Har qanday holatda ham shaxsiy manfaat himoya qilinishi kerak.

Abu Yusuf barcha musulmonlar katta daryolarda sherik ekanliklarini ta'kidlaydi. Ular daryolar suvidan o'zlari va hayvonlari ichishi uchun, dala va bog'larni sug'orish uchun har qanday cheklovlarisiz foydalanishlari mumkin. Shuningdek, u boshqalarga zarar yetkazmasligi sharti bilan, shaxsiy foydalanish uchun yangi kanallarni ochish mumkinligini ta'kidlaydi, agar ushbu yangi kanallar uylarga va ekinlarga zarar yetkazadigan bo'lsa, hukumat buning oldini olishi kerak. Shunga ko'ra, Abu Yusuf jamoat yerlaridan foydalanishda salbiy tashqi tomonlarga e'tibor qaratadi. Masalan, agar suv tegirmonlari katta daryolarda ruxsat etilsada, biroq ular kemalarning o'tishiga to'sqinlik qilsa, ular hukumat tomonidan olib tashlanishi kerak. Agarda biror kishiga tegishli yerda buloqlar, quduq va suv o'zani bo'lsa, undan ichimlik suvi iste'moli uchun to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, uni ichimlik suvi uchun sotishga haqli emas. Biroq, u sug'orish maqsadi to'sqinlik qilishga haqlidir. Agar suv egasining ehtiyojidan ortiqcha bo'lsa, Abu Yusuf uning egasi undan ortiqchasini sug'orish maqsadida boshqalarga berishga majburdir degan fikrda. U Payg'ambarimiz (s.a.v) ning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Suvni o'zingizning ehtiyojlaringiz uchun ishlatgandan so'ng, yaqin atrofigizdan boshlab, qo'shnilaringizga oqizib tushiring". Abu Yusufning ortiqcha suv haqidagi g'oyalari uning xalq farovonligi uchun qayg'urishini ko'rsatadi. U tabiiy resurslar hamma uchun ochiq va erkin bo'lishi kerakligini, ular ma'lum bir shaxslar tomonidan chegaralanilmasligini ta'kidlaydi. Ushbu qoida islom davlati fuqarolari uchun zarur bo'lgan muhim bo'lgan yashash vositalarini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni anglatadi (Nasrulloh Ali Munif, 2019:20).

Abu Yusuf qishloq xo'jaligi sharoitlarini yaxshilashda davlat tomonidan olib boriladigan jamoatchilik ishlarining ahamiyatini yoritib o'tadi. Davlat kanallarni qazish, ko'priklar qurish va yo'llarni to'g'rilashi kerak. Bu ishlov berilmagan yerlar maydonini kamaytirishga, ishlov berilgan yerlarning unumdorligini oshirishga va natijada soliq tushumini ko'paytirishga yordam beradi. Shuning uchun u jamoat ishlari davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidladi, chunki bular yer egalari zimmasiga tushadigan katta xarajatlardan xalos etadi.

Abu Yusuf suv, o't-o'lan va yaylovlarni jamoat yerlari sifatida nazarda tutadi. Bunday joylarning egalari uning mulkidan boshqalarga foydalanishga ruxsat berishi va ularga zarar yetkazmasligi lozim.

XULOSA

Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida keltirib o'tilgan iqtisodga oid fikrlari juda katta ahamiyatga ega, chunki bu asar islom iqtisodiyoti bo'yicha yozilgan ilk asar sifatida ilk musulmon olimining tafakkuri haqida tushunchaga ega bo'lish uchun asarni batafsil ko'rib chiqish kerak edi, ayniqsa davlat moliyasi va boshqaruv tizimi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi kitobning bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shuning uchun Abu Yusuf alohida hurmatga loyiq inson bo'lgan.

Mazkur asar asrlar davomida musulmon mamlakatlarida soliqlarni yig'ish, to'plash va to'plangan mablag'larni taqsimlashda, soliqlar bilan nizolarni qo'rib hal qilishda muhim manba sifatida xizmat qilib kelgan.

Abu Yusuf tomonidan yozilgan asarlarning har biri jamiyatning biror jabhasiga qaratilgan va uning rivojida muhim rol o'ynagan. U Abbosiylar davrida yashagan musulmonlarning ijtimoiy hayotini tushunadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, uning "Kitob al-xaroj" asari o'z davrida islom qonunchiligi uchun ulkan ish hisoblanadi. Chunki, u yangi nazariyalar bilan soliq tizimini yaxlit qolipga soldi va kitob holida jam qildi. Bu kitob keyinchalik ham ko'pgina islom davlatchiligida qonunchilik uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ilk o'rta asrlarga kelib islom madaniyati va ilm-fani o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi va dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan holda insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda islom dini turli millatlar uchun ma'naviy va g'oyaviy birlashtiruvchi kuch rolini o'ynagan.

Musulmon iqtisodiy tizimining shakllanishida islom olimlari mehnatining samarasi ulkan. Islom shariati

qoidalariga tayangan musulmon olimlari tomonidan o'z davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy masalalarni tadqiq etilishi yangi bilimlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Islomning ilk davrida musulmon iqtisodchilari fiqh olimlari bo'lishgan. Xususan, Horun ar-Rashid davrida bosh qozi bo'lgan fiqh olimi Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarini eslashni o'zi kifoya. Unda nafaqat soliqqa tortishning huquqiy jihatlariga, balki davlatning iqtisodiy siyosati borasidagi masalalarga ham murojaat etgan.

Abu Yusufning ilmiy merosini o'rganish asosida fuqarolarning tinchligi, ularning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilash yo'lida uning ulkan sa'y-harakatlari aniqlandi. Abu Yusufning islomiy soliq tizimini ishlab chiqishda soliq turlarini birma-bir aniq dalillarga asoslangan holda bayon etishi davlat boshqaruv tizimida mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishda katta yordam berganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. (2001). Китаб ал-Харадж. (Мусульманское Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. – Санкт Петербург. – С.12.
2. Абдуллаев Р. (2009). Ислом иқтисодиёти асослари // Маънавий ва диний етуклик давр талаби. – Т. : “Тошкент ислом университети” нашр., 2009. – 211 б.
3. Abdul Azim Islahi. (2006). Kharaj and land proprietary right in the sixteenth century: An example of law and economics // King Abdulaziz University, Jeddah. 2006. – P. 1-8.
4. Ahmad Farras Oran. (2009). The Economic system under the Abbasids dynasty. – London : The encyclopaedia of Islamic economics, 2009. – 257-266 p.
5. Беккин Р.И. Ислом иқтисодий модели ва замон. – Т. : Ўзбекистон. 2019. – 359 б.
6. Беккин Р.И. (2009). Исламская экономическая модель и современность. Москва, Издательский дом Марджани, 2009. – 316 с.
7. Байдаулет Е.А. (2019). Исломий молия асослари. – Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 432 б.
8. Беккин Р. (2008). Экономические воззрения Абу Юсуфа. 2008. – URL : <https://islamnews.ru/news-economicheskije-vozzreniya-abu-jusufa>.
9. Siddiqi M.N. (1992). Historiy of Islamic Economics Thought. – Jeddah, 1992. – 252 p.
10. Sabahiddin Azmi. (1995). Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. – India. – 140 p.
11. Сюкияйнен Л.Р. (2004). Мусульманское право собственности: юридическое осмысление религиозных постулатов // Отечественные записки. – 2004. – №6 (21). – URL : www.strana-oz.ru.numid21.article.978
12. Ibn an-Nadim. al-Fihrist. – Bayrut : Dorul-ma'rifa. – B. 286.
13. Имом Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. (2021) Китоб ал-хараж. / таржимон. А.Маннапов. – Тошкент : “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёти, 2021. – 240 б.
14. Исломов А. Эгамов. Э. (2003). Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т. : Ўзбекистон, 2003. – 216 б.
15. Dr. Oğuz BAL. (2014). One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. – Vol. 1, No. 2. – URL : www.tujise.org.
16. Dr. Oğuz BAL. (2014). Islam Iktisadinin kilometer taslarindan Ebu Yusufun iktisodi dusuncesi // Turkish Journal of Islamic Economics, Vol. 1, No. 2, August. – P. 1-41.
17. Hendri H.A. (2018). The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic banking and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. – P. 42. Yūsuf Musa, Fikḥ-i Islām Tarihi, Istanbul. Çev:Ahmet Meylani, s.232.
18. Habib Ahmed. (2004). Role of Zakah and Awqaf in Poverty Allevation. – Jeddah, 2004. – 150 p.
19. Lokkegard F. (1950). Islamic Taxation in the classic Period. Copenhagen. Branner & Korch, 1950. – 286 p.
20. Надеждин А.В. (2020). Абу Юсуф как один из учеников Абу Ханифы в контексте становления ханафитской правовой школы. Вестник Российского университета кооперации. № 3(41). – С. 143-147.
21. Nasrulloh Ali Munif. (2019). Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol. 07 No. 01. – P. 14-24. <http://ejournal.staim-tulungagung.ac.id/index.php/Eksyar>.
22. Nasir Nabi Bhat. (2015). Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. Asian Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 3, Issue 3, March 2015. – P. 158-175
23. Нуриев Б.Д. (2015) Зақят в классическом мусульманском праве. // Вестник КГУ им Н.А.Некрасова. – 2015. – №3. – С. 178-182.
24. Öznur ÖZDEMİR. (2018). Early Islamic Institutions: Administration and Taxation from the Caliphate to the Umayyads and Abbasids. Journal of Sakarya University Faculty of Theology (SAUIFD), Volume: XX, Issue: 37.
25. Öznur Özdemir. Tax disruption as a ground force for the Abbasid revolution and a review for modern Islamic historiography. URL : <http://dx.doi.org/10.17335/sakaifd.354578>
26. Рахмонов. А.Р., Рузиев Р.Ж. (2010) Исламское право. Уфа, 2010. – 284 с.
27. Шарль Р. (1959) Мусульманское право. / пер. С.И.Волк; предисл. Е.А.Беляева. – Москва : Иностр. лит., 1959. – 142 с.
28. Хасанов Х. В. (2017) Ахлоқий (исломий) молиялаштириш тизими – инновацион молиялаштириш

воситаси сифатида (Ўзбекистон ва МДХ мисолида) // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналі. – № 5, 2017. – Б. 1-8.

REFERENCES:

1. Abu Yusuf Yakub b. Ibraxim al-Kufi. (2001). Kitab al-Xaradj. (Musul'manskoe Abu Yusuf Yakub b. Ibraxim al-Kufi. Kitab al-Xaradj (Musul'manskoe nalogoblojenie) / Per. s arabskogo i kommentarii A. E. Shmidta. Suprakommentarii k perevodu A. S. Bogolyubova. Podgotovka k izdaniyu, vstupit. statya i ukazateli A. A. Xismatulina. - Sankt Peterburg. – S. 415.
2. Abdullaev R. (2009) Islom iqtisodiyoti asoslari // Ma'naviy va diniy yetuklik davr talabi. – T. : “Toshkent islom universiteti” nashr., 2009. – 211 b.
3. Abdul Azim Islahi. (2006) Kharaj and land proprietary right in the sixteenth century: An example of law and economics. – King Abdulaziz University, Jeddah, 2006. – P. 1-8.
4. Ahmad Farras Oran. (2009) The Economic system under the Abbasids dynasty. – London : The encyclopaedia of Islamic economics, 2009. – 257-266 p.
5. Bekkin R.I. (2019) Islom iqtisodiy modeli va zamon. – T. : O'zbekiston, 2019. – 359 b.
6. Bekkin R.I. (2009) Islamskaya ekonomicheskaya model i sovremennost. – Moskva : Izdatel'skiy dom Mardjani, 2009. – 316 s.
7. Baydaulet Ye.A. (2019) Islomiy moliya asoslari. – T. : O'zbekiston, NMIU, 2019. – 432 b.
8. Bekkin R. (2008) Ekonomicheskie vozzreniya Abu Yusufa. – 2008. – URL : <https://islamnews.ru/news-ekonomicheskie-vozzreniya-abu-jusufa>.
9. Siddiqi M.N. Historiy of Islamic Economics Thought. – Jeddah, 1992. – 252 r.
10. Sabahiddin Azmi. (1995). Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosophy in economics. India. – 140 r.
11. Syukiyaynen L.R. (2004) Musul'manskoe pravo sobstvennosti: yuridicheskoe osmyslenie religioznyx postulatov // Otechestvennye zapiski. – 2004. – №6 (21)/ – URL : www.strana-oz.ru/numid21.article.978
12. Ibn an-Nadim. al-Fihrist. – Bayrut : Dorul-ma'rifa. – B. 286.
13. Imom Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim Kufiy. (2021) Kitob al-xaroj. tarjimon. A.Mannapov. – Toshkent : “O'zbekiston halqaro islom akademiyasi” nashriyoti, 2021. – 240 b.
14. Islomov A. Egamov. E. (2003) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T. : O'zbekiston, 2003. – 216 b.
15. Dr. Oğuz BAL. (2014). One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. www.tujise.org. Vol. 1, No. 2.
16. Dr. Oğuz BAL. (2014). Islam Iktisadinin kilometer taslarindan Ebu Yusufun iktisodi dusuncesi // Turkish Journal of Islamic Economics, Vol. 1, No. 2, August. – P. 1-41.
17. Hendri H.A. (1983). The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic banking and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. – R. 42. Yûsuf Musa, Fıkh-ı İslâm Tarihi, Istanbul. Çev: Ahmet Meylani, s.232.
18. Habib Ahmed. (2004) Role of Zakah and Awqaf in Poverty Allevation. – Jeddah, 2004. – 150 p.
19. Lokkegard. F.(1950) Islamic Taxation in the classic Period. – Copenhagen : Branner & Korch, 1950. – 286 p.
20. Nadejdin A.V. (2020). Abu Yusuf kak odin iz uchenikov Abu Xanify v kontekste stanovleniya xanafitskoy pravovoy shkoly. Vestnik Rossiyskogo universiteta kooperatsii. № 3(41). – S. 143-147.
21. Nasrulloh Ali Munif. (2019). Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol. 07 No. 01. – P. 14-24. <http://ejournal.staim-tulungagung.ac.id/index.php/Eksyar>.
22. Nasir Nabi Bhat. (2015) Some Insights in the Development of Islamic Economic Thought During Medieval Times. Asian Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 3, Issue 3, March 2015. – R. 158-175
23. Nuriev B.D. (2015) Zakyat v klassicheskom musul'manskom prave. – Vestnik KGU im N.A.Nekrasova., 2015. – №3. – C. 178-182.
24. Öznur ÖZDEMİR. (2018). Early Islamic Institutions: Administration and Taxation from the Caliphate to the Umayyads and Abbasids. // Journal of Sakarya University Faculty of Theology (SAUIFD), Volume: XX, Issue: 37.
25. Öznur Özdemir. Tax disruption as a ground force for the Abbasid revolution and a review for modern Islamic historiography. – URL : <http://dx.doi.org/10.17335/sakaifd.354578>
26. Raxmonov. A.R., Ruziev R.J. (2010). Islamskoe pravo. – Ufa, 2010. – 284 s.
27. Sharl R. (1959). Musul'manskoe pravo. / per. S.I.Volk; predisl. Ye.A.Belyaeva. – Moskva : Inostr. lit., 1959. – 142 s.
28. Xasanov X. V. (2017). Axloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovatsion moliyalashtirish vositasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida) // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 5, 2017. – B. 1-8.